



JAMOAT SALOMATLIGI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ijtimoiy-tibbiy gazetasi



27
dekabr
2021 yil.
Dushanba

№4 (4)

RESPUBLIKADA ILK MAROTABA EMBRIOLOGIYA OLIMPIADASI O'TKAZILDI

Bugun tibbiyot sohasida malakali kadrlar yetkazishda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti alohida ahamiyat kasb etmoqda.



Ta'lim muassasasida xalqaro darajadagi talabalar va shifokorlar bilan bemalol bellasha oladigan, zamonaviy tibbiyot bo'yicha eng so'nggi bilimlarga ega kadrlarni tayyorlash maqsadida respublikada ilk marotaba Amerika ta'lim dasturiga asoslangan o'quv kurslari joriy etildi.

Hozirda institutning Davolash ishi fakulteti talabalari USMLE ta'lim dasturi bo'yicha dasturni Toshkentda o'qib kelgan malakali shifokor ustozlardan bilim olmoqdalar. Ushbu dastur uch bosqichdan iborat va barcha bosqichlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar AQShda shifokor bo'lib ishlash litsenziyasini qo'lga kiritadilar.

Dastur tadbiriq etilganiga 4 oy bo'ldi va shu munosabat bilan o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida fundamental tibbiyot kursining Embriologiya yo'nalishi bo'yicha olimpiada tashkil etildi.

Olimpiada avvalida institut rektori so'z olib, tibbiyotga berilayotgan e'tibor yuqoriligi, lekin ta'lim jarayonida, malakali kadrlar yetkazishda oqsayotganimiz, ta'lim

dasturimizga horijiy davlatlar tajribalarini, o'qish metodlarini kiritish vaqti kelganligini aytdi. Buning uchun institutda birinchi qadam qo'yilgani bilan barchani tabriklab, talabalardan umidi katta ekanini alohida ta'kidladi. Shuningdek, Amerika ta'lim dasturini O'zbekistonga olib kirgan va birinchilardan bo'lib barcha bosqichlarini muvaffaqiyatli yakunlab, Amerikada shifokor bo'lib ishlash litsenziyasini qo'lga kiritgan shifokor bilan savol-javoblar bo'lib o'tdi. Yana bir e'tiborli jihati olimpiadada Turkiyadan tashrif buyurgan embriologiya bo'yicha klinik vrach Ali Buran ham ishtirok etib, talabalarga o'zining samimiy tilaklarini izhor etdi. Shundan so'ng bilimdonlar bellashuvi start oldi. 7 ta guruh 3 ta shart bo'yicha bellashdilar. Amerika ta'lim dasturi bo'lganligi sababli 1- blits savollar shartida savollar ingliz tilida berildi va guruhlar hozirjavoblik bilan olgan bilimlarini namoyon etdilar. Ikkinchi shartda illyustrativ rasmlar orqali kasallikka tashxis qo'yish va uchinchi shartda klinik vaziyatlarni to'g'ri yechish vazifasi qo'yildi. Talabalar barchasini a'lo darajada uddaladilar. G'olib guruh a'zolari planshetlar bilan taqdirlandilar.



Talabalar berilgan test savollarning to'g'ri javobini aniqlashmoqda



G'olib jamoani taqdirlash jarayoni

E'tirof

TALABALARIMIZDAN YANA BIR G'ALABA

Farg'ona politexnika institutida «Yoshlar forumi» doirasida viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari talabalar o'rtasida «Biz zo'ravonliksiz hayot tarafdorimiz» shiori ostida tanlov bo'lib o'tdi.

Mazkur tanlovda, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Davolash ishi yo'nalishi 2-kurs talabalar «Reproduktiv salomatlikda onlayn imzo» loyihasi bilan ishtirok etdi.

4 yo'nalishda bo'lib o'tgan tanlovda institutimiz talabari faol ishtirok etib, o'z loyihalarini munosib ravishda himoya qildilar va hayotga tadbiriq etilganda bir qator ijobiy natijalarga erishish mumkinligini atroflicha tushintirib o'tdilar hamda g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

Tanlov yakunida esa g'oliblikni qo'lga kiritgan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti talabalar, tashkilotchilar tomonidan esdalik sovg'alari, diplom va sertifikatlar bilan taqdirlandilar.

M.DEHQONOVA

Bilasizmi?

Embriologiya [embrion va., logiya] – embrion (murtak, pusht) ning hosil bo'lishi va rivojlanishi qonuniyatlari to'g'risidagi fan. Odam va hayvonlar embriologiyasi hamda o'simliklar embriologiyasi farqlanadi.

Odam va hayvonlar embriologiyasi old embrional taraqqiyot (oogenez, spermatogenez), urug'lanish, embriogenez, ya'ni tuxum va embrion parada ichidagi rivojlanish, shuningdek, lichinkalik (ko'pgina umurtqasizlar va amfibiyalarda), postembrional (baliqlar, sudralib yuruvchilar va kushlarda) yoki postnatal (sut emizuvchilarda) davrlarni o'rganadi.

D.RAYIMJONOVA tayyorladi

YANGI O'QUV BINO FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bugungi kunda 150 ga yaqin horijlik talabalar tahsil oladi. Endilikda ular uchun alohida kafedra tashkil etildi.



Ma'lumki, Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ko'plab horijiy mamlakatlar bilan ta'lim sohasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni kun sayin rivojlantirib bormoqda. Oliyog'ning horijiy kafedrasida tahsil oluvchi talabalar uchun mo'jazgina o'quv binosi zarur edi. Mana ko'pdan beri olib borilayotgan sa'y-harakatlar amalga oshib, zamonaviy shart-sharoitdagi o'quv xonalari ilm ahli uchun hozirlandi.

Aytish kerakki, horijiy kafedrada tahsil olayotgan talabalarga 19 nafar o'z sohasining mutaxassislari bo'lgan malakali pedagoglar bilim sirlarini o'rgatayptilar. O'qituvchilarning 5 nafari Pokiston Islom Respublikasidan. Talabalar uchun har tomonlama qulay, zamonaviy sharoitga ega bo'lgan sinfxonalar albatta sifatli ta'lim uchun xizmat qiladi.

O'quv binosining foydalanishga topshirilishi esa katta tantanaga aylanib ketdi.

—Biz judayam xursandmiz. Bu kabi chiroqli, zamonaviy o'quv binosining ochilishi uni yoshlar uchun berilishi biz o'qituvchilarga, qolaversa, talabalar uchun ham katta e'tibor va yaxshi imkoniyatdir. Chunki biz o'quv mashg'ulotlarimizni turli bino, kafedralarda o'tkazar edik. Endi esa jamoa bir joyga jamlandi. Buning uchun oliyog' rahbariyatiga va boshqa mutasaddilarga o'zimizning chuqur minnatdorchiligimizni bildiramiz. Talabalarni bilim olishga ehtiyoji yanada oshdi, deb bemalol ayta olaman. Shu o'rinda kelgusidagi faoliyatimizda biz o'qituvchilar ularga sifatli, puxta bilim berishga astoydil harakat qilamiz, bor imkoniyatimizni ishga solamiz, —deydi kafedra mudiri Junayd Ali Shoh.

Chindan ham tibbiy sohaning rivoji hamisha e'tiborda va islohotda ekanligi bois oliyog'ning klinik bazalar soni deyarli 10 taga yaqinlashib qoldi. Mazkur maskanlarning moddiy texnik imkoniyatlarini oshirish, soha xodimlarning bu boradagi salohiyatini maksimal darajada rivojlantirish ishlariga muhim e'tibor qaratilyapti. Tadbirida so'z olgan oliyog' rektori ham bu borada amalga oshirilgan istiqbolli tashabbuslarni bundan keyin ham qo'llab-quvvatlashni ta'kidladi. Talabalar ixtiyoriga topshirilgan ko'rkam binoda faqat iste'dod uchqunlari ko'rsatishini faxr bilan tilga oldi. Tadbir so'ngida talabalar ham so'z olib, o'z minnatdorchiliklarini oliyog' ma'muriyat ahlidan yashirmadilar.



Shuningdek, shu kuni yurtimizda birinchi bo'lib, Farg'ona shahrida bolalar poliklinikasi foydalanishga topshirildi. Endilikda, institutining pediatriya klinik o'quv bazasi bilan bir binoda faoliyat olib boradi.



Gulruxsor OMONDINOVA. Suratlar muallifi M.QODIROV

E'tirof

Kelajagimiz faxrlari

«Yangi O'zbekistonni barpo etishga qaratilgan umumxalq harakati saflarida siz, aziz yoshlarimizning qudratli to'lqin bo'lib maydonga chiqayotganingiz, yuksak tahsinga sazovordir»

Shavkat Mirziyoyev



Shohruh
AHMADALIYEV

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o'qituvchisi. "Diagnostik championship» intellektual o'yini tashabbuskori

Tahsil olayotgan talabalarning bilim-salohiyatini oshirishda intellektual o'yinlarining ahamiyati katta. Zakovat o'yinlarida yoshlarimiz tezkorlik bilan fikrlashga, mushohadali bo'lishga, masalani tahlil qilishga harakat qiladilar. Institutimiz miqyosida o'tkaziladigan diagnostika chempionati esa yoshlarning klinik fikrlash qobiliyatini o'stiradi, to'g'ri va aniq tashhis qo'yish, qiyosiy tashxislash ko'nikmasini oshiradi. Shu bilan birga, jahon tajribasida eng samarali usul hisoblangan bemorlarda kuzatilayotgan turli kasalliklarga jamoa bo'lib, fikr almashgan holda tahlil qilish va kasallik omilini aniqlash ko'nikmasini shakllantiradi.

Shuningdek, jahon tajribasiga tayangan holda tibbiyot sohasida tadbir etish uchun ko'plab loyihalar ustida ishlamoqdaman. Birinchi loyiham – Kovid pandemiyasi sharoitida reanimatsiya va intensiv terapiya bo'limlarida davolanayotgan bemorlarning ahvolini integrallashgan monitoring qilish dasturi. Ko'p funksiyali reanimatsion - anesteziologik monitor bizga noinvaziv usulda bemorning arterial qon bosimi, pulsi, qonning kislorod bilan to'yinganlik darajasini (saturatsiya), yurak elektrokardiografik ma'lumotlarini, tana harorati va qondagi karbonat angidritning miqdorini (agar monitorida kapnograf ham bo'lsa) doimiy ko'rsatib turadi. Agar integrallashgan monitoring dasturi yo'lga qo'yilsa yuqoridagi barcha muhim ko'rsatgichlar va ma'lumotlar ortiqcha tibbiyot xodimlari ishtirokisiz amalga oshiriladi. Natijada, tibbiyot xodimlarining kasallikka chalinishi va kasalxona ichi infeksiyasi oldi olinadi. Bemorlar haqidagi ma'lumotlar kompyuter bazasiga saqlanib qolib, u haqdagi qo'shimcha ma'lumotlar ham kiritilib boriladi. Ushbu dasturda yig'ilgan ma'lumotlar retrospektiv tahlillar va tadqiqotlarni amalga oshirish uchun ancha qulaylik yaratadi.

Ikkinchisi esa, bog'cha va kichik maktab yoshdagi bolalarda yassi oyoqlikni oldini olish va samarali davolash maqsadida ishlatiladigan universal ortopedik poyabzal loyihasi. U bugungi kunda bolajonlar o'rtasida ko'p kuzatilayotgan kasallikning oldini olishda samarali yechim bo'ladi, albatta.

K.POLVONOVA

INNOVATSIYA BILAN HAMNAFAS

E'tirof

Bugun o'sib kelayotgan yosh avlodni qo'llab-quvvatlash, o'z iqtidorini namoyish etishiga yetarlicha imkoniyat va sharoit yaratib berish mamlakatimizning oldiga qo'ygan muhim ustivor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlar har bir mamlakatning siyosiy va iqtisodiy jihatdan rivojlanishida muhim poydevor sanaladi. Yurt kelajagi taraqqiy topishida ularning tutgan o'рни ahamiyatlidir.



**Nodirabegim
JAMOLIDDINOVA**

"XXI-ASR AYOLI"

Ayni kunda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Davolash fakulteti Davolash ishi yo'nalishi 3 bosqichida tahsil olayotgan qahramonimiz, nafaqat tibbiyot sohasida, balki ko'plab ijtimoiy sohalarda ham yutuqlarga erishib kelmoqda.

Ulardan biri Milliy tiklanish partiyasi tomonidan o'tkazilib kelinayotgan "XXI-asr ayoli" ko'rik tanlovidir. 21-asr o'zbek ayollarining bilimi va salohiyati hamda bugungi kunda olib borayotgan ilmiy faoliyatini yuzaga chiqarish maqsadida tashkil etilgan ushbu ko'rik tanlovda Nodirabegim munosib ravishda qatnashdi va viloyat bosqichida 3-o'rinni egallab, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Bu chindan ham opa-singillarimizning ijtimoiy faolligiga doir yangi g'oya va tashabbuslarni ilgari surish, ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni amaliyotga tadbiiq etishga qaratilgan. Bu esa o'z o'rnida samarali yechim sifatida amaliyotga tadbiiq etilmoqda.

Bundan tashqari 2021 yilda Nodirabegimning «Noorganik kimyo» fani mashg'ulotidan mualliflik uslubiy qo'llanma dasturi va qo'llanmasi chop etildi.

Iqtidorli talabamiz Xalqaro hamda Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida faol ishtirok etib ilmiy maqolalari va dokladi yuqori o'rinlarga munosib topilgan.

Jumladan, joriy yilda Butun jahon yoshlar tashkilotida bo'lib o'tgan ikki kunlik ilmiy konferensiyada ishtirok etib 40 ta xorijiy davlat yoshlari o'rtasida o'zining «Снижение уровня бедности и населения путём достижения целей устойчивого развития» mavzusidagi dokladi bilan qatnashib eng yaxshi pozitsion doklad nominatsiyasini sohibasi bo'lgan.

Bundan yana ko'plab Yevropa va boshqa xorijiy davlatlarning ilmiy-amaliy anjumanlarida faol ishtirok etib, fahri o'rinlarni egallab kelmoqda. Bunga isbot tariqasida talabamizda hozirgi kunda 10 ortiq yevropa mamlakatlarining sertifikatlari hamda 40 dan ortiq milliy va MDH davlatlarining sertifikatlari mavjud.

Hozirda esa Nodirabegim o'zbek qizlarining iste'dodi va iqtidorini e'tirof etuvchi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti uchun viloyat bosqichida bo'lib o'tayotgan tanlovda faol ishtirok etmoqda.

Nodirabegimning ilmga qiziqishi va o'z ustida muntazam ravishda ishlab borishi tahsinga loyiq.

"NASTARIN" RESPUBLIKADA G'ALABA QOZONDI



Toshkent shahrida Yoshlar kelajak bunyodkori shiori ostida o'tkazilgan talablar teatr studiyalari festivalining final bosqichi g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining "Nastarin" talabalar teatr jamoasi respublika miqyosida o'tkazilgan ushbu festivalda "To'maris" nomli sahna asari bilan faxrli birinchi o'rinni egalladi.

Taqdirlash marosimida ham ushbu sahna asari va uning ijrochilari, yig'ilgan hay'at a'zolari, o'zbek milliy teatr san'atining buyuk darg'alari va rejissyorlari tomonidan alohida e'tirof etildi.

Yil davomida o'tkazilgan ushbu festivalga yurtimizning barcha viloyatlaridan ishtirokchi va tomoshabin sifatida ko'plab talaba-yoshlar va ustozlar keldi. Marosim so'ngida g'oliblar Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi tomonidan diplom hamda pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Albatta, bo'lajak tibbiyot sohasi vakillarining teatr san'atiga bo'lgan qiziqishi va aktyorlik qobiliyati, shu bilan birga ijro etayotgan rolini maromiga yetkazib ko'rsatib bera olishi barchani hayratda qoldirdi. Bunda esa taniqli va mahoratli rejissor Azima Yuldoshevaning tutgan o'рни beqiyos.

Aytib o'tish joizki, mana 4 yildan buyon g'oliblik shohsuppasini qo'ldan boy bermay kelayotgan talabalarimiz chinakam iste'dod sohibi ekanliklarini yana bir bor isbotlab berdilar.



«To'maris» spektaklida bosh qahramon rolini ijro etgan talabamiz Mohinur Quvvatova esa «Eng yaxshi ayol roli uchun» nominatsiyasi sohibi bo'ldi va diplom bilan taqdirlandi.

SAMARQANDDA XALQARO OLIMPIADA BO'LIB O'TDI

Xabaringiz bor, Samarqand davlat tibbiyot institutida «Samarqand 2020» II Xalqaro olimpiadasi bo'lib o'tdi. Mazkur olimpiadada Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining 12 nafar iqtidorli talabalari ham faol ishtirok etdilar.

Tibbiyot oliygoxlari talabalari o'rtasida ikkinchi bora o'tkazilgan mazkur olimpiada Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ukraina, Belarusiya, va Turkiya davlatlarining 300 ga yaqin talabalari bevosita, shuningdek, 2 mingga yaqin boshqa ishtirokchilar onlayn tarzda qatnashdilar.



Olimpiadada 32 ta oliygox jamoalari o'rtasida bilimlar bellashuvi ham bo'lib o'tdi. Ishtirokchilar xorijlik tibbiyot mutaxassislari, professor-o'qituvchilari tomonidan baholandi.

Talabalarimizdan 4-kurs talabasi Asliddin Sheraliyev mikrobiologiya fani bo'yicha 2-o'rin, 2-kurs talabasi Shohsanam Ashuraliyeva biokimyo fani hamda 4-kurs talabasi Xasanjon Burxonjonov travmatologiya-ortopediya fanlaridan faxrli 3-o'rinni egalladilar.

Qolgan barcha talabalarimiz esa olimpiadada o'tkazilgan turli nominatsiyalar bo'yicha g'oliblikni qo'lga kiritib diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.



Mayram AZIMOVA,
FJSTI Kommunal va mehnat
gigiyenasi kafedrasida katta
o'qituvchisi

BIRINCHI KURS TALABALARIGA FOYDALI MASLAHATLAR

Talabalar har kuni ma'ruzalar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar, kitoblar va o'quv qo'llanmalari bilan mustaqil ishlash kabi mashg'ulotlar bilan band bo'ladi. Qolaversa, institutda olti majburiy soat va uyda kamida 3-4 soat. O'quv yukining bunday davomiyligi birinchi kurs talabasining organizmi uchun yangilik emas. Biroq, u maktab va kollej faoliyatidan bir fan bo'yicha darslarning kamroq hilma-hilligi va uzoq davom etishi bilan farq qiladi.

Bundan tashqari, notanish muhit, shuningdek, nazoratning yetishmasligi (har bir darsda so'ray oladigan o'qituvchi yo'q) aqliy mehnatga munosabatni o'zgartirishi ham muhimdir. Bugungi kun uchun

hisoblangan ish miqdori ertaga muvaffaqiyatli yakunlanishi mumkin degan fikrdan ko'ra yomonroq narsa yo'q.

Tananing kamaygan fiziologik funktsiyalarini tiklashga faol dam olish - yurish, yugurish, sport o'ynash yoki jismoniy mashqlar yordam beradi. Soat 18 da mustaqil o'qishni boshlashingiz mumkin. Uyda muntazam ravishda, kunduzi va kunduzi mashq qilish muhimdir. Ko'rish organi uchun eng yaxshi dam olish uzoqqa qarash, ko'chalarda yurishdir. Uzoq muddatli aqliy mehnat tananing kuchini tiklash uchun 8-9 soat davom etadigan to'liq chuqur uyquni talab qiladi. Qachon yotish kerak? 23 soatdan kechiktirmay! 8 soat uxlab, ertalab soat 7 da tez turing, ertalabki mashqlarni bajarib, nonushta qilishni unutmay va iloji boricha sekin darslarga piyoda boring.

Darslardan so'ng - birinchi taomdan iborat tushlik, ikkinchisi - go'sht yoki baliq va shirinlik. Soat 20 da - kechki ovqat, sut-sabzavot tarkibi. Yotishdan oldin etarlicha ovqatlanish yaxshi emas, kechki ovqat yotishdan 1,5-2 soat oldin bo'lishi kerak. Qattiq ovqatni, suyuqliksiz iste'mol qilish mumkin emas. Har safar ta'mga qarab sut, choy, qahva, kompot ichish kerak.

Talabani taomnomasida issiq go'sht va baliq ovqatlari, donli mahsulotlar, sabzavotli salatlar, sut va nordon sut mahsulotlari, qora va oq non bo'lishi kerak. Ko'p shirinliklarni (shakar, qantlar va boshqalar) iste'mol qilish tavsiya etilmaydi. Bu mahsulotlar kuniga 50-60 grammdan oshmasligi kerak. Yuqori kaloriyal va to'yingan bo'tqalar, kartoshka haqida unutmay. Kepakli non tarkibida organizm uchun zarur bo'lgan B vitaminlari

mavjud, ichak motorikasini yaxshilaydi. Kuniga 0,5 litr sut iching.

Yomon odatlardan voz kechish va dozalangan jismoniy faollik metabolizmni normallashtiradi.

Bo'lajak shifokor uchun muhim bo'lgan yana bir holatni ta'kidlash kerak. Shifokor nafaqat aqli, bilim, mehribon, xushmuomala, jismonan sog'lom bo'lishi kerak. U javob berish tezligi, hushyorlik, uzoq muddatli statik stressga (masalan, operatsiya vaqtida) dosh berish qobiliyati, chidamlilik va qat'iyatlilik kabi fazilatlarini rivojlantirgan va mustahkamlagan bo'lishi kerak. Bu fazilatlarining barchasi jismoniy tarbiya jarayonida mukammal darajada shakllanadi. Sport o'yinlari, yengil atletika mashg'ulotlari tibbiyot instituti talabasiga professional tibbiy fazilatlarini egallashga yordam beradi.

Yodingizda bo'lsin, shifokor o'z so'zlari va harakatlarida pedantlik darajasiga qadar aniq va tiniq bo'lishi kerak. Shifokorning ana shu fazilatlariga bemorga ishonch bag'ishlaydi.

Kun tartibini o'z vaqtida bajarish talaba hayotining ritmini belgilabgina qolmay, dinamik stereotipni shakllantiradi, balki bo'lajak mutaxassisning xarakterini, xulq-atvorini va qilinayotgan ish uchun mas'uliyat hissini shakllantiradi.

Hurmatli birinchi kurs talabalar! Sizing oldingizda ajoyib talabalik hayoti ochiladi. Maxsus tibbiy bilimlarni o'zlashtirayotganda shuni yodda tutingki, kelajakda shifokorlik kasbi uni tanlagan har bir kishidan insonga cheksiz mehr, yuksak madaniyat, oliyjanoblik, fidoyilik, ulkan mehnatsevarlik va teran g'oyani talab qiladi.

МОДЕРНИЗАЦИЯ
ПОСЛЕДИПЛОМНОГО
МЕДИЦИНСКОГО
ОБРАЗОВАНИЯ В
УЗБЕКИСТАНЕ:

РЕАЛИЗАЦИЯ И ВНЕДРЕНИЕ ПРОЕКТА CHILDCA



Saida SAIDKHODJAEVA,
Начальник отдела междуна-
родных связей Ташкентский
Педиатрический медицинский
институт

В нашей стране последовательно реализуется комплекс мер по модернизации национального медицинского образования, внедрению в данную сферу международных образовательных стандартов, проведению комплексных научных исследо-

ваний по актуальным проблемам охраны здоровья населения, в частности совершенствованию комплексных мер по уходу за детьми.

В рамках реализации вышеизложенных программ, крайне актуальным явилось начало нового образовательного проекта Erasmus Plus CHILDCA: «Совершенствование системы обучения по уходу за детьми, как модель модернизации последипломного медицинского образования в Центральной Азии» 598399-ERP-1-2018-1-IT-ERPKA2-SVNE-JP, финансируемая Европейским Союзом. Ташкентский педиатрический медицинский институт является партнером этого проекта. CHILDCA является совместным проектом, организованный в качестве технико-экономического обоснования, впоследствии запланированного стать структурным проектом для устойчивого и долгосрочного улучшения в ор-

ганизации последипломной медицинской подготовки в странах ЦА, причем, не только в области педиатрии, но и в других областях медицины.

Цели и задачи проекта CHILDCA:

- 1) Поддерживать модернизацию, профессионализацию и интернационализацию последипломного обучения в области управления уходом за детьми в странах ЦА в сотрудничестве с ВУЗами из ЕС, желающими поделиться своим опытом и знаниями в отношении конкретных целей проекта;
- 2) Оказывать поддержку странам ЦА в улучшении качества, планировании и проведении последипломного обучения в области управления уходом за детьми в своих вузах с учетом возможного структурного улучшения в организации указанного обучения;
- 3) Содействовать аналогичному улучшению предложений последипломного обучения в

других областях медицинской помощи, в то же время продвигая углубленный анализ в области в европейских вузах;

4) Подчеркнуть важность ухода за детьми в текущем процессе реформы здравоохранения в странах ЦА, способствуя тем самым снижению детской смертности за счет обновленного подхода к современным методам ухода за новорожденными и детьми;

5) Обеспечить прочную основу в педиатрической подготовке медицинских работников, занимающихся первичной медико-санитарной помощью;

6) Повысить актуальность исследований ЦА в сценарии международной научной литературы посредством более глубокого взаимодействия с университетами-партнерами ЕС и более информированных отношений на арене рецензирования;

7) Содействовать общению между людьми, межкультурной осведомленности и взаимопо-

ниманию в многонациональной сети вузов.

Результатами станут новые учебные планы и новые стратегии обучения, посвященные комплексному уходу за ребенком, согласно принятым в странах ЕС и нацеленными на достижение тех же результатов. Ожидается, что конечным результатом будет сокращение младенческой смертности и значительное увеличение ожидаемой продолжительности жизни при рождении для групп стран-партнеров, которые в настоящее время живут в среднем на десять лет меньше, чем население ЕС.

Таким образом, резюмируя вышеизложенное, необходимо отметить важность и социальную значимость данного проекта в области управления уходом за детьми в Узбекистане, а также в системе модернизации, профессионализации и интернационализации последипломного обучения и подготовки кадров.

**JAMOAT
SALOMATLIGI**

MUASSIS:
Farg'ona jamoat
salomatligi tibbiyot
instituti

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
Farg'ona viloyati hududiy
boshqarmasi tomonidan
6 sentabr 2021 yil №12-132
raqam bilan ro'yxatga olingan.

BOSH MUHARRIR:
Akmal SIDIKOV
NASHR UCHUN MAS'UL
I.ABDUJABBOROV

Qog'oz bichimi: A-3
Oyda bir marta o'zbek tilida
chop etiladi

TAHRIRIYAT MANZILI:
150105, Farg'ona shahar,
Yangi Turon ko'chasi, 2-uy
Tel.: (73) 243-06-62
(94) 444-91-76

fmiroz@mail.ru | fjsti.uz



GAZETA BEPUL
TARQATILADI

Gazeta «Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
BOSMAXONA MANZILI:
Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-kvartal,
Yangi shahar ko'chasi, 1- A uy.
Bosmaxonaga 27.12.2021 yil, soat 16 00 da
topshirildi. Topshirish vaqti: 17 00
Buyurtma: Adadi: 1000